

## MUZEYLAR MOZIYDAN SO‘YLAR

Boltayev Timur

Registon ansambli ko‘rgazma zal mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8107195>

**Annotatsiya:** mazkur maqolada mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimiy yodgorliklarni o‘zida jamlagan, shu bilan birgalikda, Samarqandning yuqori darajadagi madaniy-siyosiy hayotini ochib beruvchi Afrosiyob muzeyi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Muzey, Afrosiyob, eksponat, so‘g‘d, din.

“Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir”, — degan edi adib Abdulla Qodiriy. Biz ham bir zumga bo‘lsa-da, moziyga qaytib, qadimiy muzeylarimiz tarixiga nazar solishga qaror qildik. *Xalqimizning qadimiy tarixidan so‘zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o‘rganish, tadbiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyat muhim vazifadir. Mamlakatimizning tarixiy obidalarini o‘rganish xalqimiz tarixiga oid yangi ashyo va ma‘lumotlar olish imkonini, o‘tmishimizda yashab o‘tgan ajdodlarimizni hozirgi kunga yetib kelishimizdagi o‘rinlarini bilishimizga, ularning mehnatlarini qadrlashga yetaklaydi.* Bizning yurtimiz tarixiy obidalarga boy go‘shadir. Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘zida aks ettirgan va kelajak avlodlarga moziydan xabar beruvchi bunday arxeologik yodgorliklarni o‘rganish bizning ma‘naviy-ma‘rifiy o‘shimizga, keng dunyoqarashimizga va ajdodlarimiz bilan faxrlanishga undaydi. Ana shunday arxeologik eksponatlarni o‘zida jamlagan Samarqand shahar tarixi muzeyi bilan tanishamiz. U 1970-yilda tashkil etilgan. Muzey Afrosiyob shaharchasida – Samarqandning qadimiy, mo‘g‘illar istilosigacha bo‘lgan qismida joylashgan.

Muzey zallarida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalaridan XIII asrning boshlarigacha bo‘lgan shahar tarixini yorituvchi eksponatlar namoyish etilgan. Samarqand ikki ming yil davomida (So‘g‘d yoki So‘g‘diyananing) markaziy shahri bo‘lib, muzeyda namoyish etilayotgan eksponatlar Samarqandning yuqori darajadagi madaniy, siyosiy, diniy va ishlab chiqarishdagi hayotini yaqqol yoritadi. Muzeyda Samarqandning moddiy madaniyatini yorituvchi sopol, shisha, tosh, metal, suyak, korapilastika va me‘moriy naqshlardan iborat boy to‘plamlar saqlanadi. Bular qariyb 20 mingdan ortiq osori-atiqalarni tashkil qiladi. Bu eksponatlarning asosiy qismi muzeyning 11 ta zalidan iborat ekspozitsiyalarida namoyish etilib, qolgan yordamchi materiallar muzey fondlarida saqlanmoqda. Birinchi qavat ekspozitsiyasida Afrosiyob shaharchasining o‘rganilish tarixi, So‘g‘dning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha bo‘lgan tarixiy davrini eksponatlar bilan yoritgan. Muzeyning markaziy zalida So‘g‘d hukmdori (Ixshidi) Varxuman saroyidagi “Elchilar xonasi”ning suratlari joylashgan. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi munosabati bilan muzeyning ikkinchi qavat ekspozitsiya zallari to‘liq qayta ishga tushirildi.

Afrosiyob qazishmalaridan topilgan osori-atiqalar asosida O‘rta Osiyoda musulmon uyg‘onish davri tarixi va madaniyati namoyish etilmoqda. Eksponatlar mavzusi Samarqandning IX-XIII asrlarga oid moddiy madaniyati tarixini yoritgan. Muzey jamg‘armasi va ekspozitsiyalariga mamlakatimiz xalqlari tarixining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan rivojlanish xususiyatlarini ochib beruvchi juda katta miqdordagi qadimshunoslik va yozma yodgorliklari bilan bir qatorda O‘zbekiston san‘ati va hunarmandchiligini namoyon qiluvchi osori atiqalar mavjud. Muzeyning eng qadimiy eksponatlari neolit davriga (Zarautsoy, Sarmish va boshqalar) oid qoyaga chizilgan, realistik aks ettirilgan hayvonlar rasmlarining namunalari

hisoblanadi. O'zbekiston janubi va Samarqand viloyati hududidan topilgan muzey eksponatlari miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillikning birinchi yarmida Baqtriya va So'g'dda kulolchilik, zargarlik san'ati nihoyatda yuqori bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asr san'atining durdonalaridan biri Afrosiyob devoriy suratlari hisoblanadi, ularning asl nusxalari Afrosiyob Samarqand shahriga asos solinishi tarixiy muzeyida namoyish etilmoqda. Muzeyda ilk o'rta asr plastikasi hajmli haykaltaroshlik bilan yog'och va ganch bo'rtma tasvirlari orqali taqdim etilgan. Ularni Varaxsha, Kuyovqo'rg'on, Afrosiyob kabi yodgorliklardan topilgan ashyolar misolida kuzatish mumkin. Samarqand muzeyida asosan so'g'd ossuariylarining katta to'plami namoyish etilmoqda, ular to'g'ri burchakli so'yri shaklga ega. So'g'd ossuariylari asosan V-VII asrlar bilan davrlangan va ulardagi tasvir sahnalari zoroastrizm dini shohlari va odamlari bilan bog'liq.



Shohi Zinda majmuasining Amir Burunduq maqbarasidan topilgan va muzey ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan XV asrga oid o'g'il bola yaktagi O'rta Osiyo to'qimachiligining eng dastlabki namunalari biri hisoblanadi. Muzeyning maxsus ekspozitsiyasida deyarli barcha markazlarning zargarlik san'ati namunalari keng namoyish etilgan, ular orasida zargarlik taqinchoqlarini ommabop qilishga muvaffaq bo'lgan Buxoro ustalari, shakl jihatidan o'ziga xos va turli maqsadlarga mo'ljallangan Xorazm zargarlik buyumlari, Samarqand, Toshkent, Farg'ona zargarlarining betakror san'at asarlari namoyish etilmoqda. Muzey zallarida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi davrida iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar madaniyat, san'at, ilm-fan, qishloq xo'jaligi, qurilish va sanoat sohasida erishilgan yutuqlar hamda shu davrda yaratilgan boy madaniy ashyolar namunalari ham namoyish etilmoqda. Shunday ekan shahrimizga tashrif buyurayotgan har bir mehmon mamlakatimizning ulkan tarixidan so'zlovchi bunday muzeylarni o'z ko'zlari bilan ko'rmog'i kerak.

### References:

1. Sodiqova N. S, Madaniy yodgorliklar xazinasi, T., 1981.